



## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNI INTELLEKTUAL RIVOJLANTIRISH - IJTIMOIIY PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

**O'rinova Feruza O'ljayevna**

Farg'ona davlat universiteti

Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

**Sodiqjonova Orasta Kamoliddinjon qizi**

Farg'ona davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7882801>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-april 2023 yil

Ma'qullandi: 28-april 2023 yil

Nashr qilindi: 30-april 2023 yil

### KEY WORDS

*Ta'lim tizimi, an'anaviy ta'lim, innovatsion yondashuv, xorij tajribasi, subektiv yondashuv, tarbiyachi, kompetentli, kasbiy, yondashuv, faoliyat.*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni intellektual rivojlantirish - ijtimoiy pedagogik zarurat ekanligi va buning bugungi kun uchun dolzarbligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Ta'lim-tarbiya tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarning muammolariga nisbatan tarbiyachilarning munosabatlari asosan oddiy, vaziyatli xarakterga ega. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari aksariyat hollarda, bolalarning tashqaridan namoyon bo'lgan hatti-harakatlari va bajargan ishlariga juda oddiy tezkor ko'mak tarzida yordamlashish bilan cheklanadilar. Bu jarayonda ularni intellektual jihatdan rivojlantirishga deyarli e'tibor qaratmaydilar. To'polonchi, intizomsiz bolalarni jazolash, ota-onalariga ular haqida shikoyat qilish orqali ularning hatti-harakatlarini tuzatishga umid bog'laydilar.

Tarbiyachilarning bunday faoliyati bir yoqlama xarakterga ega bo'lib, bolalarning intellektual rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Albatta, tarbiyachining tarbiyalanuvchilarga ko'maklashishi, ularni qo'llab-quvvatlash mayllari ijobiy, samimiy, pedagogik jihatdan asoslangan bo'lib, u bolaning hayoti, intellektual taraqqiyoti, sog'ligi haqida g'amxo'rlik qilish, ularda o'zaro muloqot ko'nikmalarini tarkib toptirish, atrof-muhit haqida tasavvur hosil qilishga yo'llash, uni inson sifatida shakllantirishga qaratilgan bo'lsa-da, mazkur jarayonda ular ko'pincha buyurish, po'pisa qilish, qo'rqitish usulidan foydalanadilar. Buning natijasida, murg'ak bolada qo'pollik, bo'ysunmaslik yoki yalqovlik kabi salbiy xususiyatlar juda erta paydo bo'ladi.

Bunday yordam bolaning harakatlariga noo'rin aralashish, uning ishlariga to'sqinlik qilish tarzida namoyon bo'ladi. Natijada tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchi orasidagi hamkorlikka putur yetadi va ko'rsatilgan pedagogik yordam va qo'llab-quvvatlov hech qanday samara bermaydi. Bolaning hissiyotlarini qo'zg'atish, ichki ziddiyatlar natijasida hosil bo'lgan salbiy hatti-harakatlarni tarbiyachilar tomonidan sun'iy tarzda, zo'ravonlik bilan bartaraf etish hollari keng tarqalgan. Bunday vaziyatda bola tarbiyachidan himoyalaniishga intilib, natijada ular o'ziga xosligi, betakrorligini namoyon qila olmaydi. O'zligini pinhon tutadi va vujudga

kelgan vaziyatga osongina moslashadi. Shu sababdan bola shaxsiga yo'naltirilish pedagogik tizim uni tashqi jihatdan namoyon bo'lishiga ko'maklashish bilan chegaralanib qolmasdan, bolaning ichki mayllari, ehtiyojlarini hisobga olishga oid pedagogik ko'rsatmalarga tayangan holda tashkil etilishi lozim. Bu jarayonda tarbiyachining vazifasi bolaning shaxsiy imkoniyatlari, o'zligi, ichki "men"ini namoyon etishga xizmat qiladigan vosita va usullarni qo'llashdan iboratdir. Buning uchun ular o'zlariga ma'lumdek tuyulgan haqiqatlar bilan bola ruhiyatiga ozor bermay, tarbiyalanuvchilar intellektual rivojlanishlarida duch keladigan muammolarni aniqlay olishlari lozim.

Rivojlanayotgan shaxsni pedagogik jihatdan qo'llab- quvvatlashning zarurligi haqidagi fikrlar aksariyat pedagog va psixologlarning ishlarida bola qiziqishlarini himoyalashning nazariy-amaliy xususiyatlarini ochish tarzida aks ettirilgan. Jumladan, E.Goziev, A.Davletshin, R.Safarova, B.Adizov, I.P. Ivanov, SH.A. Amonashvili, A.V. Mudrik va boshqalar. Ayniqsa, O.S.Gazman, D.Yuldoshevalar maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyat doirasida mazkur muammoga alohida e'tibor qaratganlar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida bolaning individual muammolarini bevosita va bilvosita hal etishga qaratilgan individual va guruhli ishlar tashkil etilishi, ular muammolarni bartaraf qilishga qaratilishi va tezkorlik xarakteriga ega bo'lishi lozim.

Mustaqillik yillarida maktabgacha ta'lim sohasida ham bir qator o'zgarishlar, yangilanishlar amalga oshirildi. Mazkur bog'inda xodim an'anaviy ta'limdan farqli tarzda yangi dasturlar, texnologiyalar amal qila boshladi. Bugungi kunda maktabgacha ta'lim jarayonida bolaga insonparvarlik tamoyillari asosida yondashish ustuvor o'rin egallamoqda. Uning asosini bolalarni har tomonlama uyg'un rivojlantirish, ularning o'ziga xosligi, shaxsiy sifatlari va intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, tarbiyachi bilan tarbiyalanuvchilar orasida sub'ekt-sub'ekt munosabatlarini qaror toptirish ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni intellektual rivojlantirish, ularning tasavvurlarini kengaytirishda qulay imkoniyatlar yarata oladigan, bogcha-maktab kabi yangi tipdagi ta'lim tashkilotlari vujudga keldi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oliy ma'lumotli tarbiyachilar safi kengaydi.

O'zbekistan Respublikasining 2020 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida maktabgacha ta'limga alohida e'tibor qaratish lozimligi uqtirildi. Jumladan: "Maktabgacha ta'lim bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi"<sup>3</sup>.

Maktabgacha ta'lim jarayoni bolalarni axloqiy, intellektual, jismoniy rivojlantirish uchun qulay pedagogik imkoniyatlarga ega.

Maktabgacha ta'lim jarayonida uzviylikni ta'minlash uchun D.B.Elkonin, V.V.Davidov va L.V.Zankovlar kontseptsiyasiga tayanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunga kelib maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual rivojlantirish muammosi dolzarb masala sifatida namoyon bo'lib kelmoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qatnovchi bolalar soni qator sabablarga ko'ra yildan-yilga pasaymoqda. 1992 yildan bugungi kunga qadar mazkur ko'rsatkich 55% ga qisqargan. Bu esa boshlang'ich sinflarda ularni o'qitish va intellektual rivojlantirish sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Oilada bolalarga beriladigan ta'lim- tarbiya esa, maktabgacha ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan pedagogik jarayon natijasiga tenglashmayapti.

Bugungi kunga kelib, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni mujassam rivojlantirish

maqsadi ustuvor bo'lib, o'quv predmetlariga asoslangan ta'lim-tarbiyaga chek qo'yildi. Bolalarning tasavvurlari, tushunchalari, so'z boyliklarini kengaytirish, atrof-muhit haqida ma'lumotlar berishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Chunki ko'p predmetlilikka asoslangan ta'lim bolalarda yaxlit tasavvur hosil qilishga to'sqinlik qiladi. Shu bilan bir qatorda, ularning vaqti va kuchi ortiqcha sarflanishiga olib keladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga tabiat, inson, jamiyat haqidagi dastlabki eng oddiy tasavvurlarni hosil qilish lozim.

Maktabgacha ta'lim bosqichida innovatsion jarayonlarning keng amalga oshirilishi bolalarni har tomonlama qo'llab- quvvatlash va intellektual rivojlanishi uchun zamin yaratmoqda. Tarbiyachi maktabgacha ta'lim jarayonini bolalarni qo'llab- quvvatlash va intellektual rivojlantirishga yo'naltirilgan model yaratuvchisi sifatida namoyon bo'lishi kerak. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, buning uchun tarbiyachi maktabgacha ta'lim jarayonida qo'llaniladigan yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion usullarni chuqur o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Shu bilan bir qatorda, tarbiyachilar bola ruhiy rivojlanishini tashxislashning turli metodikalarini yaxshi bilishlari talab etiladi. Ular zamonaviy insonparvarlik kontsepsiyalarni bilishlari va shaxsni tarbiyalash metodikasini egallagan bo'lishlari zarur.

Mustaqillik yillarida maktabgacha va boshlangich ta'lim mazmunida uzviylikni ta'minlash borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Buning natijasida 6 yoshli bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotlariga kelishi bir kadar ko'paydi. Shuning uchun ham maktabgacha ta'lim mazmuniga jiddiy o'zgartirishlar kiritish, bolalarni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish tizimini yaratishga ehtiyoj sezilmoqda.

Bu davrda maktabgacha ta'limda bir qator yangilanishlar amalga oshirilib, uning maqsadlari tubdan yangilandi. Uning bolalarni intellektual rivojlantiruvchi funksiyasi kengayib ta'lim oluvchilarning o'ziga xosligini hisobga olish ustuvor ahamiyat kasb eta boshladi. Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha ta'limning yangi mazmuni ko'pvariantlilik, uzviylik, bolalarda dastlabki ko'nikmalar va tasavvurlarni shakllantirish, ularning individual xususiyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Biroq, dastlabki ko'rsatkichlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga an'anaviy tizim asosida yondashish bugungi kunda ham salmoqdi 58 %ni tashkil qilmoqda. Yangicha yondashuvlar esa, 23% ni, oraliq yondashuvlar 19% ni tashkil etmoqda.

Yangicha yondashuvlarning o'ziga xos pedagogik xususiyatlari shundaki, u bolalarda dastlabki ko'nikma va tasavvurlarni hosil qilish asosida ularning ongi, tafakkurini o'stirishga xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga ta'lim-tarbiya berish asosida ularni intellektual rivojlantirish uchun ta'lim jarayoni sub'ekt sifatida ularning faollikni shakllantirishga alohida e'tibor berilishi lozim. Maktabgacha ta'lim jarayonida bolalarni qo'llab-quvvatlash orqali ularni o'z o'zini rivojlantirish va muntazam takomillashtirishga intiluvchi, ta'lim sub'ekti sifatida shakllantirish uchun qulay shart- sharoitlar yaratish zarur. Buning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali intellektual rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish metodikasini ishlab chiqish talab etilmoqda. O'z navbatida pedagog kadrlarni ham mazkur metodika asosida ishlashga tayyorlash zaruriyati mavjud.

Bolalarni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali intellektual rivojlantirish tizimining afzalligi ularni mujassam taraqqiy ettirishga yo'naltirilgan bo'lib, uning asosiy mazmuni ta'lim

oluvchilarning intellektual faoliyatlarini rivojlantirish, dastlabki tushuncha, ko'nikma va tasavvurlarini tarkib toptirishning ishonchli asosi sifatida iroda va hissiyotlarini boyitishdan iborat. Mazkur tizimning yaxlitligi barcha qismlarning o'zaro aloqadorligida o'z ifodasini topadi. Maktabgacha ta'limning yangi maqsadlari, yangi didaktik tamoyillari, mazmuni, metodik tizimning tipik xususiyatlari. tushunchalar, ko'nikmalar, tasavvurlar hosil qilish va ularni rivojlantirishning natijaviyligini ta'minlashni nazarda tutadi. Buning uchun bir qator maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mazkur tizimdan foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Mazkur muammoning dolzarbligi jamiyatda intellektual salohiyatga ega yoshlarga bo'lgan ehtiyojning kuchliligi bilan belgilanadi. Bolaning mavjud olamini yaxshilik sari yo'naltirish, ularning hayotdagi yetukligini ta'minlash insonparvar pedagogikaning muhim masalalaridan biridir. XXI asr - intellektual salohiyat asri sifatida insoniyat tarixiga kirib keldi. Hozirgi tamaddunning eng yuqori cho'qqisi yuksak ilmiy kashfiyotlarni amalga oshirish davri sifatida namoyon bo'lmoqda. Buning natijasida iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy infrastrukturalar, fan va texnologiyalar rivojlanmoqda.

Yangi madaniy qadriyatlarga asoslangan uzbekiston jamiyatida maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab bolalarning intellektual rivojlanishlarini qo'llab-quvvatlash tizimini vujudga keltirish insonparvar pedagogikaning yetakchi vazifalaridan biridir. Ta'lim oluvchilarning xaq-huquqlari va rivojlanish imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat siyosati bolani har tomonlama rivojlantirish uchun qulay pedagogik imkoniyatlarni yaratishga qaratilgandir. Buning uchun bolalarning ongi, xulq-atvorlari va ta'lim-tarbiya jarayoniga moslashishlari uchun yangi ijtimoiy-madaniy qadriyatlardan foydalanish lozim.

Bolalarning intellektual rivojlanishlarini qo'llab-quvvatlash muammosining dolzarbligi ijtimoiy voqe'lik, ko'pmadaniyatlilikka asoslangan ta'lim-tarbiya hamda ijtimoiy pedagogik vaziyatlar bilan bevosita bogliqdir. Bu o'z navbatida ijtimoiy pedagogik vaziyatning o'ziga xos jihatlariga ham tayanishni taqozo qiladi. Bu jarayonda ta'lim, milliy tarbiya, bolalar ekologiyasi, bolalarni fan-texnika yutuqlariga qiziqishlari muhim ahamiyatga ega.

Bolalarni intellektual rivojlanishlarini qo'llab-quvvatlashda ularning shaxsiyati va o'zligiga tayanish talab etiladi. shunga ko'ra maktabgacha ta'lim-tarbiya paradigmasi o'zgaradi va maktabgacha ta'limning yangi nazariyasi va amaliyotini tadqiq qilishni taqozo qiladi. Bunday nazariya doirasida bolalarning intellektual shakllanishlari va bu sohadagi imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish shaxsga yo'naltirilgan ta'limning ajralmas tarkibiy qismidir.

Zamonaviy ijtimoiy-pedagogik vaziyatlar, ko'pfaoliyatlilikka asoslangan ta'lim jarayonining rivojlanishi, bolalarni pedagogik qo'llab-quvvatlashning nazariy asoslarini aniqlash zaruriyatini ilgari surmoqda. Maktabgacha ta'lim nazariyasi va amaliyotining tahlili shuni ko'rsatadiki, jamiyat rivojlanishining barcha bosqichlarida bolalarni intellektual rivojlantirish va ularning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish muammosi bu jarayonda ularni qo'llab-quvvatlash va himoyalash ko'plab olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan.

O'tmishda yashab o'tgan yirik pedagoglar: Ya.A. Komenskiy, I.Pestolotsi, J.J.Russo, K.D.Ushinskiy, L.N.Tolstoy, X.Kapterev, V.I.Vodovozov, P.P.Blonskiy, S.T.Shatskiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sinolarning ishlarida bu muammoga oid yondashuvlar o'z ifodasini topgan.

Ular milliy xarakterdagi ta'lim tashkilotlarida bolalarni intellektual, axloqiy, ma'naviy. erkin shaxs sifatida shakllantirish, ularning imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ko'nikmasiga ega bo'lgan tarbiyachi va o'qituvchilarni tayyorlash, ularni bolalarni qo'llab-quvvatlash va himoyalashga oid nazariyalar bilan qurollantirish sohasida uz qarashlarini bayon qilgan. Bu ishlarda bola shaxsining intellektual rivojlanishida ijtimoiy pedagogik qo'llab-quvvatlashning muhimligi alohida ta'kid- lanadi.

Bolalarni pedagogik qo'llab-quvvatlash va himoyalashning muhimligini har jihatdan anglab yetgan pedagoglar bu sohadagi nazariyaga asos solishga kirishdilar. Biz o'z qarashlarimizni nazariy jihatdan asoslashda pedagog hamda psixologlarning shu sohadagi yondashuvlariga tayanamiz. Jumladan, Z. Freyd, E.Bern, E.Erikson, R.Berns, K.Yung, U.Glasser, R .Safarova, B.Ma'murov va boshqalar. Mazkur olimlar tomonidan bolalarni ijtimoiy pedagogik qo'llab-quvvatlash va himoyalash muammosi keng ko'lamda o'rganilgan. Bu sohada Ye.V.Bondarevskaya, B.Z.Vulfov, L.S.Vigotskiy, V.A.Kan-Kalik, I.Ya.Lerner, A.N.Leontev. L.I.Novikova, S.L.Rubinshteyn, V.A.Slastenin, N.E.Shurkovalar salmoqli fikrlarni ilgari surdilar. Fundamental nazariyalar, an'anaviy ta'lim-tarbiya tizimi pedagogik qo'llab-quvvatlash tizimini nazariy jihatdan asoslashda katta ahamiyatga ega. Shu bilan bir qatorda, pedagogik meros bizning nuqtai nazarimizda ijobiy jihatlari bilan namoyon bo'ladi. Mavjud ta'lim-tarbiyaning ijobiy jihatlari sifatida pedagogik qo'llab-quvvatlashga qarshi harakatlar amalga oshirilganda bolaning hissiyotlari yo'qoladi; bolalar tashkilotlarining samarali faoliyat ko'rsatishlari; maqsadlarning oydinligi; jamoaviylik kabilar tarkib topadi. Ilgarigi barcha nazariyalar shaxsga ob'ekt sifatida yondashishni talab qilar edi. Ta'lim jarayoniga nisbatan bilimlarga asoslangan yondashuvda bolaning o'ziga xos xususiyatlariga yetarlicha e'tibor berilmaydi.

Ta'lim-tarbiyaning mavjud shart-sharoitlarida bola shaxsini qo'llab-quvvatlash va himoyalash masalasi istiqbolli yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Chunki bu muammo yangi ahamiyat va xarakter kasb etmoqda. O'zining mohiyati va mazmun jihatdan to'ldirilishi zarurligi asoslanganda bir qator integrallashgan fundamental omillarga tayanadi. Bunday omillar sirasiga global, milliy, hududiy rivojlanish omillarini kiritish mumkin. Ularning markazida ta'lim oluvchilar shaxsi, ularni qo'llab-quvvatlash va himoyalash turadi.

Bunday sharoitda ta'lim jarayonining muhim muammosi ta'lim-tarbiyaning insonparvarona paradigmalarni ishlab chiqish hisoblanadi. Bu paradigmalarni zamonaviy ijtimoiy-madaniy vaziyatga mos kelishi lozim. Shundagina u ko'pmadaniyatlikka asoslangan ta'lim jarayoni oldiga qo'yilgan vazifalarni hal eta oladi. Uning yechimlarini topishga harakat qilish, innovatsion tarbiya kontseptsiyasi mualliflari tomonidan amalga oshirildi. Biz ham o'z tadqiqotlarimiz jarayonida xuddi mana shu kontseptsiyaning asosini tashkil qilgan insonparvar yondashuvlarga tayanishga harakat qildik. Bunga quyidagilar aloqadordir: o'z-o'zini rivojlantirishga asoslangan tarbiya tizimi (L.I. Novikova); insonni madaniyat yordamida tarbiyalash (E.V. Bondarevskaya); jamoaviy ijodiy ish metodlari (I.P. Ivanov); erkinlik pedagogikasi va pedagogik qo'llab-quvvatlash (O.S. Gazman); shaxsga yo'naltirilgan ta'limning didaktik modellari (V.V. Serikov); pedagogik faoliyatni mustaqil tashkil etish (S.V. Kulnevich) kabilar bunga misol bo'la oladi. Mazkur tadqiqotlar negizida ifodalangan g'oya: dunyo ta'limning ilmiy-texnika taraqqiyotiga o'tish paradigmasidan, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan hamda o'z faoliyatini ijodiy tatbiq etishga qaratilgan insonparvarlik paradigmasiga o'tmoqda.

Ta'lim oluvchilar shaxsini qo'llab-quvvatlash va himoya qilishga qaratilgan bir qator ishlar mutaxassislarda alohida qiziqish uyg'otmoqda. Ta'lim oluvchilarchilar shaxsini qo'llab-quvvatlash va himoya qilishning innovatsion tizimini vujudga keltirishga yo'naltirilgan bir qator yondashuvlar muammoni asoslashda alohida ahamiyatga ega.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Maxmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. Toshkent, A. Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. 2007.
2. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. -T. TDPU. 2004.
3. Turg'unboev K. va Rizaev A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. –“Andijon”nashriyot matbaa. 2008.
4. Mavlyanova R.A. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya. -T.: 2007.
5. Saidahmedov N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. -T. Fan 2009. 58-bet
6. Yo'ldashev J.G'. Pedagogik texnologiya asoslari.- T.: 2004
7. Saidaxmedov N. Interfaol usullar. -T.: “Universitet”, 2005
8. Soliyev I. S., qizi Ergasheva D. S. BOSHLANG 'ICH TA'LIM FANLARINI O 'QITILISH JARAYONIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ME'ROSIDAN UNUMLI FOYDALANISH //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 16-20.
9. Ergasheva D. FORMATION OF CORRECT READING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL PUPILS //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 1675-1678.
10. Uljaevna U. F., Shavkatovna S. R. Development and education of preschool children //Academica: an international multidisciplinary research journal. – 2021. – T. 11. – №. 2. – C. 326-329.
11. Uljaevna U. F. Didactic games in preschool educational system //Проблемы современной науки и образования. – 2020. – №. 4-2 (149). – C. 27-29.
12. O'Rinova F. MAKTABGACHA TALIM TASHKILOTLARIDA PSIXODIAGNOSTIK TADQIQOTLAR //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B8. – C. 1233-1237.
13. Уринова Ф. У. ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИИ РЕБЁНКА ДОШКОЛЬНОГО И МЛАДШЕГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B2. – C. 68-71.